



## O'ZBEK TILIDA ARABIZMLARNING QO'LLANILISHI

To'lanboyev Ibrohimjon

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5558895>

### ИСТОРИЯ СТАТЬИ

Принято: 01 октябрь 2021 г.  
Утверждено: 05 октябрь 2021 г.  
Опубликовано: 10 октябрь 2021 г.

### АННОТАЦИЯ

*Maqolada arab tilidan kirgan V bob fe'llarining o'zbek tilida qo'llanilishi va ularning ma'nolariga izoh berib o'tilgan.*

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

*Takabbur, Tasavvur,  
Tasadduq*

V bob fe'liga oid arabizmlar o'zbek tilida keng tarqalgan. Ular tilimizga singishib, xalqimizning ma'naviy boyligiga aylangan.

Ushbu maqolada V bobning masdar shakli haqida to'xtalib o'tamiz. Bu bobning masdar shakli تقع ( tafa'ulun) qolipida yasaladi:

تعلم (ta'allumun) o'rganish, تكسر (takassurun) parchalanish. Bu bobning o'zagidagi ma'no saqlanadi va deyarli asl ma'nodan uzoqlashmagan holda o'zbek tiliga o'zlashgan. Bunday arabizmlarni o'zbek tilida juda ko'plab uchratishimiz mumkin:[1.B.180]

Takabbur o'zini katta oluvchi, kekkaygan[2.B.643].

Otasining davlati, katta og'iz, hovliqma va **takabbur** onasining erkalashi qo'shib, qizga ortiqcha g'urur bergan, harakatlariga o'zboshimchalik, qiliqlariga noz- karashma bag'ishlagan edi.

«Takabbur» so'zi. V bobning masdar shakli bo'lib, bu so'z كبر o'zakdan yasalgan "O'zini katta olmoq, kibrlanmoq" ma'nosini beradi. Bu o'zak orqali "Takabbur" so'zi hosil bo'lgan va bu so'z "Gerdaygan, kekkaygan" degan ma'noni beradi.( Oybek )

Tasavvur - o'ylash, xayol qilish, ko'z oldiga keltirish[2.B.7].

Ko'zi yumilarkan Qambar hozirgina tasvir etgan xasis boyni tushida juda mudhish **tasavvur** etdi. Ushbu gapdagi «Tasavvur» so'zi «O'ylab zehnda gavdalantirish, xayol qilish» degan ma'noda qo'llangan.( Oybek)

Tasadduq - sadaqa qilish, sadaqa yo'li bilan biror narsa berish[2.B.7].

Yo'q, boyvachcham,-ma'noli iljaydi ellikboshi, -ikki og'iz so'zim bor, **tasaddug'ingiz** bo'lay, marhamat qiling. (Oybek) Tasadduq so'zi «sadaqa bo'lish,



qurbon bo'lish» degan ma'noda qo'llangan. O'zbek tilida «Jonim sadaqa» degan ibora shu so'z orqali paydo bo'lgan. Romanda sadaqangiz, qurboningiz bo'lay ma'nosida ishlatilgan.

Tabassum - jilmayish, iljayish [2.B.625].

Uning yuzida muloyim **tabassum** butun siyomosida, qandaydir bir sabrsizlik sezilar edi. (Oybek) Tabassum so'zi بيسم - jilmaymoq fe'ldan olingan bo'lib, romanda «jilmayish, kulish» degan ma'noda qo'llangan. Arab tilida bunday so'zlar fe'l masdarini, ya'ni fe'l shakli bo'lsa, o'zbek tilida bunday arabizmlar ot so'z turkumiga o'tgan hisoblanadi.

Tashakkur - minnatdorchilik bildirish, rahmat aytish.

Yo'lchi qizning bunday tuyg'unligi va fidokorligiga qanday baho berishni, qanday qilib o'zining chuqur **tashakkurini** bildirishni bilmay qoldi. (Oybek) Tashakkur so'zi شكر -shukur qilmoq, minnatdor bo'lmoq fe'li o'zakdan yasalgan. Bu gapda ushbu so'z minnatdorchilik qilish, rahmat aytish ma'nosida qo'llangan. Va bu so'z ot so'z turkumi bo'lib, mavhum tushunchani ifodalaydi

Tashabbus - tirishqoqlik, barqarorlik, qat'iylik.

Cholning katta o'g'li Abdullaboy kichik o'g'li Fazliddinboyvachchaning **tashabbusi** va harakati yolg'iz shu boylikni o'stirishga qaratilgan. Tashabbus so'zi سشب -tirishqoqlik qilmoq, qat'iylik qilmoq degan o'zakli fe'ldan olingan.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida ham V bob fe'lining masdar

shakliga juda ko'plab misollarni topishimiz mumkin:

kurrabaT - ruxsat, rozilik olish; muborak, muqaddas.

Lekin chinakam mavlono Adoning xati bo'lsa, **tabarruk** narsa. Ushbu gapdagi tabarruk so'zi -ulug' hurmatga sazovor, g'oyat hurmatli, mo'tabar va aziz ma'nolarida qo'llanilgan. So'zning o'zagi برك - duo qilmoq, rozilik qilmoq degan ma'noni beradi. Tabarruk so'zi xuddi shu o'zakdan hosil bo'lgan. O'zbek tilida bu so'z sifat so'z turkumiga kiradi.

Takalluf - sun'iylik, soxtalik; serhashamlik, jimjimadorlik; iymon, tortinish.

Qadrli mehmonlarini yana allaqanday ziyofatlar, mehmondorchiliklar, **takalluflarga** ko'mib tashlamoqchi bo'ladi. Gapda qo'llangan takalluf so'zi كلف - o'zagidan yasalgan. Bu gapda ushbu so'z o'ta bo'rttirish, mulozamat qilish ma'nolarida ishlatilgan. Mavhum ma'noni anglatgan mavhum ot sanaladi.

-o'z ixtiyoriga olish, egalik qilish; mustaqil harakat qilish; o'zboshimchalik.

Hech bo'lmaganda, shu bittani tasarruf qilma. Tasarruf so'zi foydalanish, egalik huquqi, ixtiyori; egalik, xo'jayinlik ma'nosi berish uchun ishlatilgan. Bu so'z o'zining asl ma'nosidan uzoqlashmagan.

Bunday arabizmlarni tilimizda juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Shu so'zlarni topish ma'nosini, izohlash orqali tilimizning tarixini bilishimiz va uning imkoniyatlarini yanada kengaytirishimiz mumkin.



**References:**

1. Hasanov M. Arab tili. Toshkent. G'.G' nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi.2018
2. Talabov E. Arab tili. Toshkent. O'zbekiston. 1993
3. Oybek.Qutlug' qon. G'. G 'nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent- 1969
4. Cho'lpon .Kecha va kunduz "Sharq"nashriyot matbaa konsernining tahririyati .Toshkent - 2000